O‘ZBEK SHE’RIYATIDA IJTIMOIY LIRIKANING SHAKLLANISHI VA TADRIJI

Raxmatova Madinabonu Qosimovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktaranti
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22977835

Annotatsiya: Har qanday milliy adabiyot o‘z davri ijtimoiy hayotining badiiy solnomasidir. She’riyat esa bu solnomaning eng ta’sirchan, eng samimiy sahifalarini tashkil etadi. Zero, lirika inson qalbining bevosita ifodasi bo‘lgani bois jamiyatda kechayotgan evrilishlar, xalq dardi va orzu-armonlari, davr ma’naviy muhitidagi o‘zgarishlar avvalo she’riyatda o‘z aksini topadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy adabiyotimiz, xususan, she’riyatimiz uchun mutlaqo yangi tarixiy sharoit vujudga keldi: so‘z erkinligi ta’minlandi, mafkuraviy tazyiqlar barham topdi, ijodkor o‘z xalqi taqdiri, jamiyat muammolari haqida ochiq va dadil fikr yuritish imkoniga ega bo‘ldi. Ana shu tarixiy imkoniyat zaminida ijtimoiy lirika sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Kalit so'zlar: Usmon Azim, hozirgi o'zbek she'riyati, ijtimoiy muammolar, ma'naviy-axloqiy muammolar, minbar she'riyati, lirik qahramon, vijdon, erk, badiiy obraz, milliy qadriyatlar.

Аннотация: Любая национальная литература является художественным отражением общественной жизни своего времени. Поэзия же составляет самые выразительные и искренние страницы этого отражения. Лирика, будучи непосредственным выражением человеческого сердца, в первую очередь находит в поэзии отражение тех перемен, которые происходят в обществе, народной боли и мечтах, а также изменений в духовной среде эпохи. После обретения Узбекистаном независимости для нашей национальной литературы, особенно для нашей поэзии, сложились совершенно новые исторические условия: была обеспечена свобода слова, прекратились идеологические давления, творец получил возможность открыто и смело высказывать свои мысли о судьбе своего народа и проблемах общества. На основе этих исторических возможностей социальная лирика поднялась на качественно новый уровень.

Ключевые слова: Усман Азим, современная узбекская поэзия, социальные проблемы, духовно-нравственные проблемы, трибунная поэзия, лирический герой, совесть, свобода, художественный образ, национальные ценности.

O‘zbek adabiyotshunosligida she’riyat poetikasi, lirik tur tabiati, davr she’riyatining taraqqiyot tamoyillari xususida salmoqli ilmiy meros yaratilgan. Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo‘shjonov, Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim Haqqul, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Abdug‘afur Rasulov, Dilmurod Quronov, Hotam Umurov singari olimlarning tadqiqotlarida hozirgi o‘zbek she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, alohida ijodkorlar mahorati masalalari atroflicha yoritilgan. Xususan, U.Normatov istiqlol davri adabiyotidagi yangilanish jarayonlarini «umidbaxsh tamoyillar» sifatida baholab, davr adabiyotining yetakchi xususiyatlarini belgilab bergan. I.Haqqul she’riyatni «ruhiy munosabat» tarzida talqin etar ekan, lirikada shaxs ma’naviy olamining ifodalanish qonuniyatlarini chuqur ochib bergan. Q.Yo‘ldoshev tadqiqotlarida esa istiqlol davri she’riyatining badiiy-estetik tabiati, yangicha poetik tafakkur muammolari o‘tkir ilmiy kuzatishlar asosida tahlil etilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Adabiyotshunoslikda lirika azaldan inson ichki olamining, his-tuyg'ular va kechinmalarning bevosita ifodasi sifatida ta'riflanadi. Biroq lirik kechinma hech qachon jamiyatdan tashqarida, ijtimoiy muhitdan ayro holda tug'ilmaydi. Shoir qalbida kechayotgan quvonch ham, iztirob ham, isyon ham pirovardida u yashayotgan davr, muhit, xalq hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda har qanday chinakam lirika muayyan darajada ijtimoiy mazmun tashiydi. Ammo adabiyotshunoslikda «ijtimoiy lirika» atamasi torroq va aniqroq ma'noda – shoirning jamiyat hayotidagi muammolarga, xalq va millat taqdiriga, davrning axloqiy-ma'naviy holatiga bevosita munosabatini ifodalovchi she'riyat turi sifatida qo'llanadi. Ijtimoiy lirikada lirik qahramonning shaxsiy kechinmasi bilan ijtimoiy dard uyg'unlashadi: shoir o'z qalbi orqali xalq qalbini, o'z dardi orqali davr dardini kuylaydi.

Ijtimoiy lirikaning tabiatini to'g'ri anglash uchun avvalo lirik turning umumiy qonuniyatlariga murojaat etish lozim. Nazariy manbalarda ta'kidlanishicha, lirikada obyektiv voqelik lirik subyekt kechinmasi orqali, ya'ni his-tuyg'u prizmasidan o'tgan holda aks etadi. Demak, ijtimoiy lirikada ham jamiyat hayoti hodisalari o'z holicha, xronika tarzida emas, balki shoir shaxsiyati, uning qalb iztiroblari va estetik ideali orqali badiiy qayta yaratiladi. Ana shu xususiyat ijtimoiy lirikani publitsistikadan farqlab turadi: publitsistika hodisaga mantiqiy-tahliliy munosabat bildirsa, ijtimoiy lirika uni qalb hodisasiga, estetik qadriyatga aylantiradi. Ayni chog'da ijtimoiy lirikada publitsistik ruh, murojaat ohangi, da'vatkorlik unsurlari ham tabiiy ravishda ishtirok etadi. Bu ikki ibtido – lirizm va publitsistiklik o'rtasidagi muvozanat ijtimoiy she'rning badiiy qimmatini belgilovchi muhim mezonlardan biridir.

Lirikaning ijtimoiy tabiati masalasi estetik tafakkur tarixida azaldan bahs mavzusi bo'lib kelgan. Aristotel «Poetika»sida she'riyatni voqelikka taqlid (mimesis) sifatida talqin etar ekan, uni tarix bilan qiyoslab, she'riyat «yuz bergan»ni emas, «yuz berishi mumkin bo'lgan»ni, ya'ni umumiy va qonuniy hodisani ifodalashi bilan falsafaga yaqinroq turadi, degan xulosaga keladi. Bu qarash ijtimoiy lirika uchun ham metodologik ahamiyatga ega: shoir konkret ijtimoiy faktni emas, undagi umumbashariy, qonuniy mazmunni badiiy kashf etadi. Hegel «Estetika»sida lirikani subyektiv ruhning o'zini o'zi anglash shakli deb baholab, chinakam lirik asarda shoirning shaxsiy kechinmasi umuminsoniy mazmun kasb etishi, «men»ning «biz»ga aylanishi lozimligini ta'kidlaydi. V.Belinskiy lirikani tuyg'u she'riyati sifatida ta'riflar ekan, uning ijtimoiy ahamiyatini shoirning xalq va davr ruhini o'z shaxsiyati orqali ifodalay olishida ko'radi. XX asr adabiyotshunosligida L.Ginzburg lirik qahramonning muallif bilan aynan bir emasligi, u davr kishisining umumlashma siymosi ekani haqidagi konsepsiyani ishlab chiqqan bo'lsa, Yu.Lotman she'riy matnni ma'no qatlamlari tizimi sifatida tahlil etib, undagi har bir unsur – ohang, qofiya, so'z tanlovi – mazmun tashuvchi ekanini asoslab berdi. Ana shu nazariy manbalar o'zbek adabiyotshunosligida I.Sulton, H.Umurov, D.Quronov tadqiqotlarida milliy she'riyat materialiga tatbiq etilgan bo'lib, bizning tadqiqotimizda ham ijtimoiy lirikani baholashning metodologik asosi vazifasini o'taydi.

Lirikaning ichki tasnifi masalasi nazariy adabiyotlarda turlicha hal etib kelingan. An'anaviy tasnifga ko'ra, lirika mavzu-mundarija jihatidan intim (muhabbat) lirikasi, tabiat (peyzaj) lirikasi, falsafiy lirika va ijtimoiy-siyosiy lirika kabi turlarga ajratiladi. Biroq zamonaviy nazariy qarashlar bu chegaralarning nihoyatda shartli ekanini ta'kidlaydi: yetuk she'rda muhabbat kechinmasi falsafiy mushohada bilan, tabiat manzarasi ijtimoiy dard bilan tutashib ketishi mumkin. Cho'lponning bahor haqidagi she'rlarida erk sog'inchi, A.Oripovning kuz manzaralarida umr va davr haqidagi o'ylar mujassamligi buning yorqin dalilidir. Shu bois biz ijtimoiy lirikani boshqa turlardan devor bilan ajratilgan alohida hodisa emas, balki lirik mazmunning ijtimoiy ahamiyat kasb etgan har qanday ko'rinishini qamrab oluvchi keng tushuncha sifatida talqin etamiz. Bunday yondashuv istiqlol davri she'riyatini tahlil qilishda ayniqsa zarur, chunki

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bu davr she'riyatida «sof» janr va tur chegaralari tobora shaffoflashib borgan.

Ijtimoiy lirika tabiatini belgilashda badiiy mazmun va shakl munosabati masalasi ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Adabiyot nazariyasida qayd etilganidek, mazmun hamisha muayyan shaklda mavjud bo‘ladi, shakl esa mazmunli hodisadir; ularning birligi buzilgan o‘rinda badiiyat ham yemiriladi. Ijtimoiy she'r uchun bu qonuniyat alohida dolzarbdir: dolzarb mavzu shoirni tayyor ritorik qoliplar, quruq deklaratsiyalar yo‘liga boshlashi xavfi doim mavjud. Chinakam ijtimoiy lirika esa mavzuning o‘ziga mos betakror shakl – ohang, ritm, obraz, kompozitsiya topa olgan she'rdir. Aynan shu mezon asosida davr she'riyatidagi haqiqiy badiiy kashfiyotlarni o‘tkinchi mavzubozlikdan farqlash mumkin. Dissertatsiyaning uchinchi bobida bu masala maxsus tadqiq etilishini nazarda tutgan holda, hozircha shuni qayd etamizki, ijtimoiy lirika tarixi mohiyatan ijtimoiy mazmunga muvofiq badiiy shakllarni izlash tarixi hamdir.

O‘zbek ijtimoiy lirikasining genezisi xalq og‘zaki ijodiga – mehnat qo‘shiqlari, marosim folklori (alla, yor-yor, marsiya) hamda «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» kabi dostonlarga borib taqaladi; bu yerda adolat, mardlik va sadoqat g‘oyalari epik ko‘lamda kuylangan. Yozma adabiyotda bu an'ana Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig»i, Ahmad Yassaviy hikmatlari hamda ayniqsa Alisher Navoiy ijodida yuksak falsafiy-axloqiy talqin kasb etdi; Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek Nodira va Uvaysiy singari shoiralar ijodida esa shaxsiy qismat dramasi va ayol dardi ijtimoiy mazmun bilan uyg‘unlashdi. Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, so‘ngra Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi demokratik yo‘nalish vakillari ijodida tanqidiy-hajviy va ma'rifiy-da'vatkor ikki tarmoq shakllandi, jadid davri ijodkorlari – Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Hamza esa milliy uyg‘onish g‘oyalarini poetik tafakkur markaziga qo‘ydilar. Sho‘ro davrida ijtimoiy lirika qat'iy mafkuraviy nazorat bilan chinakam insoniylik g‘oyalari o‘rtasidagi kurashda rivojlandi: G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya urush yillari she'riyatida vatanparvarlik va bag‘rikenglikni samimiy kuyladilar, urushdan keyin esa Mirtemir xalqona samimiyat namunasini yaratib, keyingi avlodga ijodiy zamin hozirladi. Ana shu ming yillik badiiy-tarixiy tajriba – xalq og‘zaki ijodidan tortib mumtoz va yangi davr adabiyotigacha – o‘zbek ijtimoiy lirikasining XX asr 60-yillaridagi sifat sakrashi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Turkiy yozma adabiyotning ilk yirik yodgorligi – Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida ijtimoiy-axloqiy g‘oya badiiy tafakkurning bosh o‘zagiga aylangan. Asarda to‘rt ramziy timsol – adolat timsoli Kuntug‘di, davlat va baxt timsoli Oyto‘ldi, aql timsoli O‘gdulmish hamda qanoat timsoli O‘zg‘urmish o‘rtasidagi munozara orqali jamiyat va shaxs, hukmdor va fuqaro, bilim va axloq munosabatlari tadqiq etiladi. Muallif uchun adolat – davlatning tayanchi, bilim – insonning bezagi, hukmdorning burchi esa xalq farovonligini ta'minlashdir. Bu asar ijtimoiy lirikamizning didaktik-falsafiy ildizini belgilab bergan bo‘lsa, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ijtimoiy mazmun tasavvufiy-axloqiy talqin kasb etdi. Yassaviy hikmatlarining markazida mazlumga hamdardlik, kibr va manmanlikni inkor etish g‘oyasi turadi:

Qayda ko‘rsang ko‘ngli siniq, marham bo‘lg‘il,
Andog‘ mazlum yo‘lda qolsa, hamdam bo‘lg‘il.

Bu misralarda tasavvuf axloqi bilan xalq axloqi tutashadi: ko‘ngli siniq inson dardiga malham bo‘lish shoir uchun iymonning amaliy mezonidir. Ayni shu g‘oya keyinchalik istiqlol davri she'riyatida mehr-oqibat, hamdardlik, loqaydlikni qoralash motivlari orqali qayta jonlanganini quyida ko‘ramiz.

Alisher Navoiy ijodida ijtimoiy-axloqiy lirika o‘zining eng yuksak falsafiy darajasiga ko‘tarildi. «Hayrat ul-abror» dostonining odamiylik haqidagi bobida shoir insoniylikning bosh mezonini xalq g‘ami bilan yashashda ko‘radi:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Odami ersang, demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Ushbu bayt besh asrdan buyon o‘zbek ijtimoiy lirikasining axloqiy dasturi vazifasini o‘tab kelmoqda: insonning inson bo‘lishi uning ijtimoiy hamdardligi bilan o‘lchanadi. G‘azaliyotida esa Navoiy bu g‘oyani konkret axloqiy amaliyot darajasiga olib tushadi:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

Bu yerda diniy ibodat bilan insoniy mehr o‘zaro qiyoslanib, insonga yaxshilik qilish eng ulug‘ savob sifatida ulug‘lanadi. Navoiy «Hayrat ul-abror»da kibr, tama, riyo, johillik kabi illatlarni fosh etar ekan, ularni faqat shaxsiy nuqson emas, jamiyat dardi sifatida talqin etadi: shoh zulmi, amaldor poraxo‘rligi, shayx riyokorligi haqidagi hikoyatlar mohiyatan ijtimoiy tanqidning mumtoz namunalaridir. Shoir boshqa bir o‘rinda komil inson g‘oyasini «Kamol et kasbkim, olam uyidin / Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq» tarzida ijodiy-ma’naviy da’vat sifatida ifodalaydiki, bu misralar keyingi asrlar shoirlari uchun ma’naviy kamolotning dasturiy ifodasi bo‘lib qoldi.

XVI–XVIII asrlar she’riyatida ijtimoiy mazmunning shaxsiy qismat dramasi orqali ifodalanish tamoyili kuchaydi. Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylarida vatandan judolik, taqdir zarbalari, hukmdorlik yukining og‘irligi samimiy iqror shaklida kuylanadi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bu ruboiyda shaxsiy iztirob tarixiy voqelik – yurtdan ayrilish fojiasi bilan chatishib ketgan; lirik «men»ning dardi butun bir davr dramasining ifodasiga aylangan. Turdi Farog‘iy she’riyatida esa ijtimoiy tanqid ochiq siyosiy pafos kasb etadi. Shoirning urug‘-qabilaviy nizolarga qarshi qaratilgan mashhur misralari:

Tor ko‘ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli o‘zbek yurtidur, tenglik qiling –

o‘zbek she’riyatida millat birligi g‘oyasining ilk yorqin ifodalaridan biridir. Bu misralar istiqlol davri she’riyatidagi milliy birlik, yurt yaxlitligi motivlarining tarixiy ildizini ko‘rsatadi. Boborahim Mashrab lirikasida esa riyokor shayxlar, zolim amaldorlar isyonkor ohangda fosh etilib, tasavvufiy isyon ijtimoiy isyon bilan tutashdi. Shu tariqa mumtoz she’riyatimizda ijtimoiy lirikaning uch yo‘nalishi – didaktik-falsafiy (Navoiy), iqror-dramatik (Bobur) va tanqidiy-isyonkor (Turdi, Mashrab) yo‘nalishlari shakllandiki, ular keyingi barcha davrlar she’riyatida u yoki bu shaklda davom etdi.

XX asrning 60-yillarida adabiyotga kirib kelgan avlod o‘zbek ijtimoiy lirikasi taraqqiyotida burilish yasadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva singari shoirlar ijodida ijtimoiy mavzu shaxs ma’naviy olami, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira bilan uzviy bog‘lab talqin etila boshladi. Abdulla Oripov she’riyatida ona tili qadri, xalq taqdiri, insonning ma’naviy tanazzuldan ogohlantirilishi kabi motivlar falsafiy teranlik bilan kuylandi; shoir davrning rasmiy shiorlari ortidagi hayotiy ziddiyatlarni nozik ishoralar, ramziy obrazlar orqali ifodalash mahoratini namoyon etdi. Erkin Vohidov ijodida esa xalqona donishmandlik, kulgi ostiga yashiringan achchiq ijtimoiy haqiqat, milliy g‘urur tuyg‘usi yetakchilik qildi; uning hajviy va falsafiy she’rlari ijtimoiy lirikaning ta’sirchan namunalari bo‘ldi. Rauf Parfi she’riyatida ijtimoiy dard yuksak darajada ruhiylashtirilgan, ramziy-assotsiativ ifoda yo‘lidan bordi. Bu avlod ijodi tufayli o‘zbek she’riyatida «ezop tili» deb ataluvchi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

majoziy ifoda madaniyati yuksaldi: shoirlar senzura sharoitida ham xalq dardini, milliy armonlarni she'rga singdirishning betakror yo'llarini topdilar.

Oltmishinchi yillar avlodi ijodidagi konkret namunalar tahlili bu yangilanishning mohiyatini ochib beradi. Abdulla Oripovning «Ona tilimga» she'ri (1965) ona tili qadri mavzusini shaxsiy kechinma – shoirning o'z tiliga muhabbati va uning taqdiridan tashvishi orqali ifodalab, keyinchalik butun bir avlod uchun milliy o'zlikni anglashning poetik manifestiga aylandi; she'rda til millat tarixi va ruhining tashuvchisi sifatida talqin etilib, uning kelajagi haqidagi savol ochiq ijtimoiy muammo darajasiga ko'tariladi. Shoirning «Tilla baliqcha» she'ri esa ramziy-allegorik ifodaning mumtoz namunasi: o'zi tug'ilgan hovuzdan boshqa dunyoni ko'rmagan baliqcha obrazi orqali cheklangan tafakkur, tashqi olamdan uzilganlik holati badiiy tadqiq etiladi; adabiy tanqid bu she'rni o'z davrining ijtimoiy ahvoliga nozik ishora sifatida baholagan. A.Oripovning «Munojot» she'rida mumtoz kuy orqali xalqning ko'p asrlik dardi, uning ruhiy tarixi ifodalanadi – bu yerda musiqa obrazi tarixiy xotira timsoliga aylanadi. Erkin Vohidovning «O'zbegim» qasidasi (1968) milliy g'urur mavzusini tarixiy tafakkur bilan uyg'unlashtirib, xalq tarixining fojiali va shonli sahifalarini yaxlit badiiy solnoma sifatida gavdalantirdi; qasidaning xalq orasida qo'shiq bo'lib ketishi ijtimoiy lirikaning ommaviy ta'sir kuchini ko'rsatadi. Shoirning «Ruhlar isyoni» dostoni bengal shoiri Nazrul Islom taqdiri orqali ijod erki va zulm, shoir va hokimiyat munosabati masalasini umumbashariy darajada talqin etgan bo'lsa, «Donishqishloq latifalari» turkumidagi hajviy she'rlar xalqona kulgi orqali davr illatlarini fosh etdi. Rauf Parfining «Sabr daraxti» to'plamidagi she'rlarda esa ijtimoiy dard bevosita aytilmaydi – u sukut, bo'shliq, tun, yolg'izlik obrazlari orqali, o'quvchi tasavvuriga havola etilgan holda ifodalanadi. Uch shoirning uch xil yo'li – ochiq publitsistik-falsafiy (Oripov), an'anaviy-xalqona (Vohidov) va ramziy-assotsiativ (Parfi) yo'llar ijtimoiy lirikaning ifoda diapazoni naqadar kengayganini ko'rsatadi.

Rauf Parfi ijodi 60-yillar avlodi ichida alohida falsafiy teranlik va uslubiy o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shoir she'riyatida ijtimoiy dard hech qachon ochiq da'vat yoki bayonot shaklini olmaydi; u nafis ramziy tizim, assotsiativ obrazlar, sukut va bo'shliqning o'zi orqali ifodalanadi. Rauf Parfi lirikasida erk, yolg'izlik, so'z va sukunat munosabati kabi ekzistensial-falsafiy motivlar milliy ozodlik orzusi bilan chambarchas bog'lanadi: shoir uchun ichki erk tashqi ozodlikning ma'naviy sharti hisoblanadi. Uning jahon she'riyati namunalarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girishi ham milliy she'riyatni jahon poetik tafakkuri bilan boyitishga xizmat qildi. Rauf Parfi ijodiy tajribasi keyingi avlod – 70-yillar va istiqlol davri shoirlari uchun so'z bilan ishlashning yangi, teranroq madaniyatini ochib berdi.

«Ezop tili» hodisasining poetik mexanizmlarini alohida tahlil etish o'rinli, zero, bu tajriba istiqlol davri she'riyatining ramziy-majoziy madaniyatiga bevosita meros bo'lib o'tdi. Senzura sharoitida shoirlar ijtimoiy mazmunni yetkazishning bir necha usulini ishlab chiqdilar: tarixiy mavzu niqobi ostida zamonaviy muammolarni ko'tarish; tabiat hodisalari orqali ijtimoiy holatlarga ishora qilish; afsonaviy va ertak obrazlariga yangicha ma'no yuklash; so'zlarning ko'p ma'noliligidan foydalanib, matn ostida ikkinchi mazmun qatlamini yaratish. Kitobxon bu «yashirin til»ni o'qishga o'rgandi: she'rxonlik o'ziga xos hammuallifllik, matn tagidagi haqiqatni birga kashf etish jarayoniga aylandi. Bu tajribaning qimmatli tomoni shundaki, u she'riyatning assotsiativ imkoniyatlarini, obrazning ma'no sig'imini misli ko'rilmagan darajada o'stirdi. Istiqlol davrida ochiq so'zlash imkoni tug'ilgach ham, yetuk shoirlar ana shu ko'p qatlamli ifoda madaniyatidan voz kechmadilar: endi ramz taqiq zaruratidan emas, badiiy teranlik ehtiyojidan qo'llanadigan bo'ldi.

XX asrning 70-yillarida adabiyotga kirib kelgan avlod – Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron ijodida ijtimoiy lirika yanada ruhiylashdi,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

intellektuallashdi. Bu avlod she'riyatida tarix falsafasi, milliy qadriyatlar taqdiri, shaxs erki masalalari assotsiativ obrazlar, tarixiy-madaniy timsollar vositasida talqin etildi. Omon Matjon she'rlarida Xorazm tarixi va madaniyati obrazlari orqali umummilliy ma'naviy meros qadri kuylandi. Usmon Azim ilk to'plamlaridayoq keskin dramatik ohang, haqiqatga murosasiz munosabat bilan ajralib turdi. Shavkat Rahmon she'riyatida esa so'zning halolligi, shoirlik mas'uliyati, milliy g'urur mavzulari o'tkir ijtimoiy pafos bilan yangradi. Bu avlodning badiiy izlanishlari 80-yillar oxiridagi milliy uyg'onish she'riyatini va pirovardida istiqlol davri ijtimoiy lirikasini tayyorlab berdi.

Yetmishinchi yillar avlodi ijodining konkret namunalari ham shu tamoyilni tasdiqlaydi. Usmon Azimning «Bahshiyona» turkumi xalq dostonchiligi – baxshi ijrosi ohanglarini zamonaviy she'rga olib kirib, milliy ruhning tarixiy ildizlari bilan zamon dardini tutashtirdi; bu she'rlarda lirik qahramon baxshi niqobida so'zlar ekan, xalq nomidan, xalq tili bilan davr haqida hukm chiqaradi. Shavkat Rahmonning «Uyg'oq tog'lar», «Gullayotgan tosh» to'plamlaridagi she'rlar so'z halolligi, iste'dod mas'uliyati, xalqni uyg'oqlikka chorlash motivlari bilan ijtimoiy lirikaga axloqiy maksimalizm ruhini olib kirdi; shoir uchun tog' – buyuklik va sabot timsoli, tosh – sokin qudrat va uyg'onish ramzi. Xurshid Davronning «Samarqand xayoli» to'plamida tarixiy shahar obrazi orqali millat o'tmishi va buguni o'rtasidagi muloqot badiiy tadqiq etiladi: shoir Samarqand ko'chalari, minoralari, qabrtoshlarini varaqlab, tarixdan bugun uchun saboq izlaydi. Halima Xudoyberdiyevaning «Muqaddas ayol» to'plamidagi she'rlarida ayol qalbining matonati, or-nomus tuyg'usi milliy g'urur bilan tutashib, ayol taqdiri millat taqdirining ko'zgusi sifatida talqin etiladi. Omon Matjon to'plamlarida Xorazm tarixi va madaniyatiga oid obrazlar – qadimiy qal'alar, allomalar, xalq afsonalari orqali umummilliy ma'naviy meros qadri kuylanadi. Bu avlod ijodida ijtimoiy mazmunning obrazli-ramziy ifodasi shu qadar takomillashdiki, keyinchalik istiqlol davrida ochiq so'zlash imkoni tug'ilganda ham ular ramzdan voz kechmadilar.

70-yillar avlodining adabiy maydonga kirib kelishida davr matbuoti muhim rol o'ynadi. «Yoshlik» va «Sharq yulduzi» jurnallari, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi sahifalarida yosh shoirlar ijodi muntazam chop etilib, ular atrofida qizg'in adabiy-tanqidiy munozaralar avj oldi. Ayrim tanqidchilar bu avlod she'riyatidagi murakkab obrazlilik, an'anaviy vazn qoliplaridan chekinishni «tushunarsizlik» deb baholagan bo'lsa, boshqalari unda o'zbek she'riyati taraqqiyotining tabiiy, qonuniy bosqichini ko'rdilar. Ana shu bahs-munozaralar jarayonida shakllangan yangi adabiy-nazariy tushunchalar – assotsiativ obraz, ichki monolog, ramziy kompozitsiya – keyinchalik o'zbek adabiyotshunosligi ilmiy lug'atining barqaror qismiga aylandi. 70-yillar avlodi ijodida shakl izlanishlari bilan bir qatorda milliy tarix va madaniyatga qiziqish ham sezilarli kuchaydi: Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi qadimiy o'lkalar tarixi, mumtoz allomalar merosi yangi she'riy talqinlar predmetiga aylandi, bu esa keyinchalik istiqlol davri she'riyatidagi tarixiy xotira mavzusining bevosita tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qildi.

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan oshkoralik jarayonlari ijtimoiy lirikaning portlash davri bo'ldi. Bu yillarda she'riyatda ilgari taqiqlangan mavzular – qatag'on qurbonlari xotirasi, Orol fojiasi, paxta yakkahokimligining og'ir oqibatlari, ona tilining mavqei, milliy qadriyatlarning toptalishi kabi muammolar baralla kuylana boshladi. Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf singari shoirlar ijodida millat dardi, tarixiy haqiqatni tiklash, ma'naviy uyg'onish g'oyalari o'tkir ijtimoiy pafos bilan yangradi. Ana shu davr she'riyati istiqlol davri ijtimoiy lirikasining bevosita debochasi bo'ldi: mustaqillik arafasidagi she'riyat xalqni ozodlik g'oyasi atrofida ma'naviy jipslashtirishga ulkan hissa qo'shdi.

1988–1991-yillar oralig'idagi ijtimoiy-ma'naviy uyg'onish jarayoni she'riyatga bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan yaratilgan she'rlarda ona

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

til qadri, uning kelajak taqdiri haqidagi tashvish va umid baravar ifodalandi. Shu davrda «Yoshlik» jurnali va boshqa nashrlar sahifalarida yillar davomida taqiqlangan Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi ijodkorlarning asarlari qayta nashr etila boshlandi; bu voqea davr shoirlari ijodida qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan xotira she’rlari, ularning ma’naviy merosini tiklashga da’vat etuvchi asarlar yaratilishiga kuchli turtki berdi. Muhammad Yusuf she’riyati ana shu davrda keng ommalashib, uning samimiy, xalqona ohangdagi she’rlari millionlab kitobxonlar qalbidan mustahkam joy oldi; shoir ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzulari yangicha, teran ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etdi.

Oshkoralik davri she’riyatining yana bir muhim yo‘nalishi ekologik va ijtimoiy fojialarni badiiy anglashga qaratildi. Orol dengizining qurishi, paxta yakkahokimligi oqibatida yuzaga kelgan ekologik-ijtimoiy inqiroz, shuningdek «paxta ishi» deb nomlangan og‘ir siyosiy ta’qiblar davri she’riyatda ilk bor ochiq va keskin ifodalandi. Shoirlar bu mavzularni faqat tashqi voqealar tasviri sifatida emas, balki millat ma’naviy uyg‘onishining zaruriy bosqichi sifatida talqin etdilar: haqiqatni tan olish, o‘tmish xatolaridan saboq chiqarish – yangi, sog‘lom jamiyat qurishning ma’naviy sharti sifatida kuylandi. Ana shu jarayonlar mustaqillik e’lon qilinishi arafasida o‘zbek she’riyatini ruhan va mavzu jihatidan to‘liq tayyor holga keltirdi: mustaqillik she’riyatga tashqaridan kirib kelgan yangilik emas, balki uzoq davom etgan ichki ma’naviy jarayonning tabiiy natijasi va yakuni bo‘ldi. Shu tariqa 1991-yildan boshlab yangi, mustaqil davr she’riyati o‘zidan oldingi butun tarixiy-adabiy tajribani o‘ziga singdirgan holda yangi bosqichga qadam qo‘ydi.

Xorazm adabiy muhiti – Munis, Ogahiy, Feruz davri she’riyati ham ijtimoiy lirika taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ogahiy ijodida ma’rifatparvarlik, adolatli boshqaruv, xalq farovonligi g‘oyalari mumtoz shakllarda kuylandi; shoirning tarixnavislik faoliyati esa badiiy so‘z bilan ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi aloqani yanada mustahkamladi. Qo‘qon adabiy muhitida yetishgan shoiralar, xususan, Nodira ijodida esa saltanat mas’uliyati bilan ayol qalbining nafosati uyg‘unlashdi. Bu adabiy muhitlarning tajribasi shundan dalolat beradiki, XIX asrga kelib o‘zbek she’riyati mamlakatning turli hududlarida yagona ma’naviy makon sifatida rivojlanib, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar umummilliy miqyosda aylanishga kirishgan edi. Istiqlol davri she’riyatidagi hududiy adabiy maktablar rang-barangligi – Surxon voha shoirlari, Farg‘ona vodiysi ijodkorlari, Xorazm she’riyat maktabining o‘ziga xosliklari ana shu tarixiy an’ananing davomidir.

Xulosa

Ijtimoiy lirika – lirik turning mazmun-mundarija tipi bo‘lib, unda shoirning shaxsiy kechinmasi jamiyat hayotidagi muammolar, xalq va millat taqdiri, davrning ma’naviy-axloqiy holati bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanadi. Uning bosh belgisi – lirizm va ijtimoiylik, shaxsiy «men» va umumxalq «biz»i dialektik birligidir. Ijtimoiy lirika publitsistikadan voqelikni qalb hodisasiga, estetik qadriyatga aylantirishi bilan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Q. Yo‘ldosh. M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent. 2016. 201-bet.
2. D. Tajibayeva. XX asrning so ‘ngi choragi o ‘zbek she’riyatida olov timsoli ifodasi. Academic research in education sciences. 2024. 366-371-betlar.
3. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Toshkent. 2010. 326-bet
4. Usmon Azim she'riyatidagi ba'zi ramzlar va ularning o'ziga xosligi // IQRO ilmiy jurnali. URL: https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/download/3957/6044/8737
5. Usmon Azim lirikasida teatr san'ati bilan bog'liq she'rlar // Science and Innovation. URL: https://in-

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

academy.uz/index.php/si/article/download/29627/19015/29345

6. Hozirgi o'zbek she'riyatida individual uslub muammosi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor, A. Qutbiddin). Monografiya. Samarqand: SamDU, 2023. URL: https://www.academia.edu/119162878/
7. G. Doshanova. Mahmud Toir lirikasining badiiy xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 20211041-1045-betlar.
8. Usmon Azim (1950) // Ziyouz o'zbek nasri. URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/usmon-azim-1950
9. Usmon Azim she'rlari, hayoti va ijodi. She'rlar to'plami // Ilmlar.uz. URL: https://ilmlar.uz/usmon-azim-sherlari-va-hoyoti-va-ijodi-sherlar-toplami/
10. Usmon Azim. Vatan haqida she'r va boshqa she'rlar // Tafakkur.net. URL: https://tafakkur.net/vatan-haqida-sher/usmon-azim.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.